


Yurtimizda “Yosh kitobxon” tanlovi yanada ommalashadi

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(52 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(52 KB\)](#)



2018 yil 12 mayda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Buyuk adib va mutafakkirlarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o`rganish va targ`ib etish, yoshlarimizni o`zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o`rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o`rganish va targ`ib qilish maqsadida yoshlar o`rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to`g`risida”gi qarori qabul qilindi.



Qarorda O`zbekiston Matbuot va axborot agentligi O`zbekiston yoshlar ittifoqi, O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, Xalq ta`limi vazirligi, O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma`naviyat va ma`rifat markaziga o`n kun muddatda "Yosh kitobxon" tanlovini o`tkazish tartibi to`g`risidagi nizomni ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash vazifasi topshirildi.



Ahamiyatli qaror bilan joriy yilgi tanlovlar Vatanimiz tarixi va xalqimizning ma`naviy hayotida beqiyos o`rin tutadigan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy, Berdaq singari buyuk mutafakkirlarimiz ijodi va faoliyati, jahon adabiyotining durdona asarlari, shuningdek, "Alpomish", "Go`ro`g`li", "Kuntug`mish" kabi xalq dostonlari bo`yicha o`tkazilishi va tanlov g`oliblarining avtomashina va boshqa qimmatbaho sovg`alar bilan taqdirlash belgilangan.

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Axborot xizmati

15.05.2018 09:55 da elon qilingan, marta korib chiqildi